

BOLALARDA AGRESSIVLIK HOLATINI KELTIRIB CHIQARUVCHI OMILLARNI DIAGNOSTIKASI -SHAXS RIVOJLANISHINING ASOSI SIFATIDA

Allaberganov Navro'zbek Baxrom o'g'li

Urganch davlat pedagogika institute o'qituvchisi

allaberganovnavrozbek@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'smir yoshida o'quvchilardagi agressiyaning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib aynan ularga ta'lim va tarbiya berish jarayonida turli va xilma-xil bo'lgan holatlar muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: agressivlik, agressiya, qo'pollik, qo'rslik, jizzakilik, serjahillik, xulq-atvor

Аннотация. В данной статье рассмотрены особенности агрессии у школьников в подростковом возрасте и именно те ситуации, которые разнообразны и разнообразны в процессе их обучения и воспитания.

Ключевые слова: агрессивность, агрессия, грубость, боязнь, жизнерадостность, сдержанность, поведение

Annotation. This article contains the peculiarities of aggression in students at the age of a teenager and discusses precisely those situations that are different and diverse in the process of providing them with education and upbringing.

Keywords: aggressiveness, aggression, rudeness, fearfulness, jizzakity, serjeaneness, behavior

O'quvchi shaxsining autsayder ya'ni yakkalanib qolishiga sabab bo'luvchi eng ko'p tarqalgan hatti-xarakatlar, nuqsonlar hamda salbiy tomonlar xaqida to'xtalamiz va ularni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabablarni ko'rsatib



o'tamiz. Maktab yoshida eng ko'p tarqalgan hatti-xarakat va kamchiliklaridan biri, boshqa kishilarning iltimoslari, maslahatlari, talablari, ko'rsatmalariga asossiz tarzda qarshilik ko'rsatishda namoyon bo'ladigan o'jarlikdir. Ko'pincha bunga o'quvchi nerv sistemasining kuchli taassurotlar, toliqish, og'ir kechinmalar bilan qayta qo'zg'alishi sabab bo'ldi. O'jarlikka moyillik ba'zan mustaqillik va tashabbuskorlikka intilish, o'z hoxishini so'zsiz bajarishga harakat qilish bilan izohlanadi.¹ O'jarlik, maqtash, kattalar tomonidan xech narsaning qilinmasligi, o'zining barcha istaklari va hoxishlarining so'zsiz bajarilishiga odatlanib qolgan, erkatoy qilib yuborilgan bola xulq-atvorining odatdagi ko'rinishi bo'lishi mumkin. Nihoyat, o'jarlik ba'zan bolaning norozilik bildirish, o'zidagi rivojlanayotgan mustaqillik xamda tashabbuskorlikning kattalar tomonidan hukmronlik bilan, qo'pollik bilan va asossiz ravishda bo'g'ilishdan norozi bo'lish ifodasining o'ziga xos turi tariqasida yuzaga keladi.

O'smir yoshidagi o'quvchining hatti-xarakatlarida tarqalgan boshqa kamchilik bu qo'pollik, qo'rslik, surbetlik, kattalarni hurmat qilmaslikdir. Ko'pincha bunga kattalarning o'smirni mensimasligi, uning mustaqillikka bo'lган tabiiy intilishini bosib turishi, bu yoshda tarkib topgan o'z qadrini bilish fazilatini kansitishi sabab bo'ladi. Bu mensimaslikning bevosita shakli-kattalarning hukmronlik qilishi, bevosita shakli-tinchlik bermaydigan nazorat va arzimagan vasiylik, yashirin shakli esa o'rinsiz hamda haddan tashqari mehribonlik, o'smirning o'z tengdoshlari ko'z ongida obro'sini to'kadigan mehribonlik ko'rsatishdir. O'quvchilarda qo'pollik va surbetlik ko'pincha o'zlariga nisbatan kattalarning adolatsiz munosabatiga-yolg'onchilik, nojo'ya hatti-xarakat, yalqovlik, qo'pollik bilan asossiz ayplashga javoban yuzaga keladi. O'quvchilarning qo'polligiga ko'pincha yana shu narsa xam sabab bo'ladiki, ko'pgina o'quvchilar qo'pollikni kattalikning, jasurlikning belgisi deb biladilar, yumshoqlik, mehribonlik, samimiylilik qilishdan uyaladilar, chunki bunday qilishga shalvirash, landavurlik deb qaraydilar. O'quvchilardagi qo'pollik,

¹ Asadov Y., Musurmanov R. "O'smirlar deviant hatti-harakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (diagnostika, profilaktika, korreksiya)" -T., 2011 101-b.

jizzakilik, serjahillik ularda irodaning hali yetarli darajala taraqqiy etmaganligi, o'zini qo'lga ola bilmasligi, o'zini tuta olmasligi, keskinliligi oqibati bo'lishi mumkin. Nihoyat, qo'pollik va jizzakilik, jumladan uzoq vaqt ko'p kuch-g'ayrat sarflashi talab etadigan aqliy ish bilan shug'ullanish natijasida haddan tashqari toliqishidan kelib chiqishi mumkin.

O'smir yoshidagi o'g'il bolalarning intizomsizligidan, sho'xligidan noliydarlar. O'smirlarning faolligi, jo'shib turgan kuch-g'ayrati, tashabbusi ko'pincha-oqilona yo'l topa olmay, to'polonchilikda, sho'xlikda, intizomni buzishda namoyon bo'ladi. Tengqurlarning yomon namunasi, ishlamay bekor yurish, qarovsiz qolish intizomsizlikning rivojlanishi uchun qulay sharoit tug'diradi. Sho'xlik va to'polonchilikni yuzaga keltiradigan boshqa sabab o'smirlarning mardlik-jasorat hamda dov yuraklikni noto'g'ri tushunishlaridir. O'smir bolalar qo'rkoqlik va hadiksirashdan nafratlanib, o'z jasoratlari va qo'rmasliklarini xar qanday yo'l bilan isbotlashga tayyor bo'ladilar.²

Ko'pincha bolalar xulq-atvorida yolg'onchilik, yomon maqsadlarda xaqiqatdan ongli ravishda bo'yin tovlash singari nuqsonlar paydo bo'ladi. Bolalar tomonidan xaqiqat buzib ko'rsatiladigan hamma hollarni ham yolg'onchilik deb bo'lmaydi. Jumladan, yeng kichik maktab yoshidagi bolalarning qiziqib ketib, sofkillik bilan faktlarni o'zlashtirishlari, xaqiqatni fantaziya bilan almashtirishlari yolg'onchilik emas. Yolg'onchilikning juda ko'p uchraydigan sababi qo'rkoqlik, tanbeh va jazolardan cho'chishdir. Yolg'onchilikning asosini shunchalik maqtanchoqlik va vaysaqilik bu ba'zi o'quvchilarga xos bo'lgan odatlar bo'lib, kishilarning e'tiborini o'ziga tortish, kattalar yoki tengdoshlarni hayratda qoldirish istagi, ularning hurmatini qozonish, shunday qilish bilan o'z obro'sini ko'tarish hohishi tashkil etish mumkin. Nihoyat, yolg'onchilik ko'pincha o'quvchilarning do'stlik va o'rtoqlikni noto'g'ri tushunishlarining, yomon ish qilib qo'ygan o'rtoqlarini qutqarish istagining oqibati bo'ladi.

² Asadov Y.M. Ruhiy holatlar diagnostikasi va korreksiyasi. –T., 2000 33-b

Yalqovlik bu,normal va sog'lom o'quvchilarda mehnat qilish istagi va ehtiyojining, mehnatda zo'r berishga odatlanishning yo'qligi singari nuqsonga kelsak, yalqovlikni keltirib chiqaruvchi eng ko'p tarqalgan sabab-o'z bolalarini xar qanday ahamiyatli mehnatdan saqlashga harakat qiladigan ota-onalarning o'rinsiz mehr-muhabbatidir .

Individual maslahatlar berishda hatti-xarakatlarning affektiv turlari deb atalmish turlariga ega bo'lgan o'quvchilarga alohida e'tibor berish nazarda tutiladi. Hatti-xarakatlarning bunday turlari xar xil sabablar ta'sirida, ammo asosan-o'qishdagi muvaffaqiyatsizlik, o'qituvchi yoki jamoa bilan to'qnashish, yoxud o'quvchining da'volari darajasi va jamoada uning aslida tutgan o'rni o'rtaсидagi o'ziga xos to'qnashuv ta'sirida yuzaga keladi.

Bunga o'xshagan hollarda o'quvchilarda ko'pincha affektiv holatlar va og'ir kechinmalar yuzaga keladi. Hamda shu asosda hatti-xarakatlarining salbiy ko'rinishlari tarkib topa boshlaydi. O'quvchi arazchi, o'jar, qo'pol, serjahl bo'lib qoladi, o'qituvchilarning talablariga bo'ysunishdan bo'yin tovlaydi, o'zini jamoaga qarama-qarshi qilib qo'yadi. Dj.Marenoning keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, odatda xar bir sinfda hatti-xarakatlarning ko'proq yoki kamroq keskinlik bilan ifodalangan affektiv ko'rinishlari tarkib topgan bir qancha bolalar mavjuddir.³

Ixtiyorsiz, jizzaki, beqaror o'quvchi ya'ni nerv sistemasi tez ta'sirlanadigan tipning vakili uchun vazmin, osoyishta, ammo qat'iy talabchanlik zarur. Nerv sistemasi kuchsiz tipning vakili-qo'rkoq, tortinchoq, o'ziga ishonmaydiganva ruhan osongina jarohatlanadigan o'quvchi qo'llab-quvvatlashni, dalda berib turishni talab etadi. Bunday o'quvchilarga nisbatan kuchli ta'sir ko'rsatish choralar, qattiq jazolar, qat'iy baholarni qo'llanish yaramaydi. Ular bilan muomala ohangi xam turlicha bo'lishi kerak. Tez ta'sirlanishga moyil bo'lgan yoki shoshmaydigan o'quvchilar bilan, odatda, qattiq ,ta'sirli va keskin gaplashmaslik lozim,bunday qilish tez ta'sirlanishiga moyil o'quvchilarni haddan

³ G'oziyev E. G. «Tarbiyasi qiyin o'smirlar psixologiyasi». Lektorga yordam. Toshkent-2004. 72 b.

tashqari hayajonlantirib, jahlini chiqarib yuboradi. Shoshmaydigan, o‘quvchilarni esa, aksincha, mutlaqo shoshmaydigan qilib qo‘yadi, hamda ruhini juda tushirib yuboradi. Bunday o‘quvchilar bilan vazmin, do‘stona ohangda gaplashish kerak bo‘ladi.

Individual maslahat berishda rag‘batlantirishning o‘quvchilarga turlicha ta’sir ko‘rsatishini unutmaslik lozim. Bir o‘quvchini maqtash kerak, chunki maqtov unda o‘z kuchiga ishonchni mustahkamlaydi: boshqa o‘quvchini o‘z-o‘ziga tasalli beradigan, o‘ziga ishonadigan qilib qo‘ymaslik unga nisbatan maqtash usulini qo‘llash yaramaydi. Shuningdek, o‘quvchilarning kamchiliklarini ta’kidlab o‘tish ham salbiy ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, o‘smir yoshidagio‘quvchilarga individual maslahat berishda xar bir o‘quvchi shaxsidagi mavjud ijobjiy fazilatlarga, chunonchi uning qiziqish-havaslariga , axloqiy intilishlariga , tengqurlariga nisbatan hatto hazil tariqasidagi do‘stona munosabatlarga tayana olish nazarda tutiladi. O‘qituvchi o‘quvchilardagi mavjud ijobjiy xislatlarni taraqqiy ettirish, ularning xulq-atvorida ana shunday xislatlarni yuzaga keltirish, ularning ijobjiy hatti-xarakatlarini rag‘batlantirish yo‘li bilan o‘z oldiga qo‘ygan maqsadiga oson erishishi mumkin.

Fodalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Asadov Y., Musurmanov R. “O‘smirlar deviant hatti-harakatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (diagnostika, profilaktika, korreksiya)”-T., 2011 101-b.
2. Asadov Y.M. Ruhiy holatlar diagnostikasi va korreksiyasi. –T., 2000 33-b
3. G‘oziyev E.G‘. Muomala psixologiyasi.UzMU. 2006 y 78 b.
4. G‘oziyev.E.G‘. Psixologiya metodologiyasi.UzMU.2004 y 132 b.
5. G‘oziyev E. G. «Tarbiyasi qiyin o‘smirlar psixologiyasi». Lektorga yordam. Toshkent-2004. 72 b.

6. Dolgova V. I. O'smirlarning shaxslararo munosabatlarini psixologik-pedagogik tuzatish; ilmiy va uslubiy tavsiyalar-Chelyabinsk; ATOCSO, 2010. 112 b.d
7. Jumaniyozov, F. (2024). YASHIL IQTISODIYOT. Молодые ученые, 2(29), 115-117.
8. Jumaniyozov, F. (2024). OPPORTUNITIES TO CREATE NEW JOBS IN THE CONTEXT OF THE TRANSITION TO A "GREEN" ECONOMY. University Research Base, 264-267.
9. O'G'Li, J. F. D. (2024). YASHIL IQTISODIYOTGA O 'TISHDA CHIQINDILARNI BOSHQARISH VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI. Central Asian Journal of Education and Innovation, 3(10), 115-121.
10. Jumaniyazov, F. D. O. G. L. (2023). Qishloq xo'jaligini raqamlashtirish sharoitida agrar iqtisodiyotni rivojlantirish. Science and Education, 4(5), 702-706.